

**TA'LIMDA BUYUK SIYMOLARNING AXLOQIY-MA'NAVIY TARBIYASI YoSh  
AVLOD UCHUN IBRAT****Alisher Mamajonov***Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi**Andijon davlat universiteti Jahon tarix kafedrasi professori*

**Annotatsiya.** Maqolada mustaqillik tufayli haqiqiy ona Vatanning tashkil topganligi, u el-yurt ardoqlab tilga oladigan jonajon Yangi O'zbekiston ekanligi, jahonga taniqli Buyuk siymolarni qarashlari yoshlarga andoza ekanligi, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi yoshlarga ibrat bo'lishligi, Sharqona ta'lim qoidasiga ko'ra, bolani yoshligidanoq bag'rini ilmu urfon nuri bilan yoritish taraddusi tashkil qilinganligi masalalari xususida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Buyuk siymo, ruhiyat, yoshlar tarbiyasi, chiroyli fazilat, rikobdor, tirandozlar, chavgon.

**Аннотация.** В статье высказываются мнения о том, что благодаря независимости была создана настоящая Родина, что это любимый Новый Узбекистан, о котором народ с любовью говорит, что взгляды всемирно известных великих личностей служат примером для молодежи, что их духовно-нравственное воспитание должно служить примером для молодежи, и что, согласно правилам восточного образования, с раннего возраста организуется практика освещения сердца ребенка светом знаний и традиций.

**Ключевые слова:** Великий образ, дух, воспитание молодежи, прекрасная добродетель, скакун, стрелки, чавган.

**Annotation.** The article expresses opinions about the establishment of a true motherland thanks to independence, that it is a beloved New Uzbekistan that is cherished by the people, that the views of world-renowned Great figures serve as an example for youth, that their spiritual and moral education should be an example for youth, and that according to Eastern education rules, the process of illuminating children's hearts with the light of knowledge and wisdom has been organized from an early age.

**Keywords:** Great figure, spirituality, youth education, beautiful virtue, rifleman, artillerymen, polo.

**Kirish va dolzarbligi.** Agar o'tmishga nazar tashlasak, insoniyat rivojlanish davrlarini ularning takomili vositasida anglaymiz. U sababli bugungi hayotimizning asl ma'nosini anglab yetamiz, kelajakka oid orzu-intilish, maqsadlarimizni belgilaymiz. Tarixning beqiyos qudrati, tarbiyaviy ta'siri, ustozlik mohiyati o'tgan zamonimizni o'rganish, tadqiq qilish orqali bugungi kunni baholash, hozirgi insonlarni tushunish va ularni to'g'ri yo'lga solish xususidagi fikrlarni, qarashlarni o'zida jamlaganidadir. Tarbiya o'zbek xalqining bugungi nasli zimmasiga nihoyatda katta, muqaddas burchni yukladi. Bu – yurtni yurt qilish, uning shanini dunyoga yoyish, qudratiga qudrat, shuhratiga shuhrat qo'shishdir. «Biz o'z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik» [1. 44], - gar shunday ekan millatning yetukligi, shaxsning ma'naviy kamoloti o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, hurmati, samimiyati, mehr-oqibati bilan belgilanadi. Yurtga bo'lgan samimiy ishtiyoq inson tabiatiga ona suti bilan singadi. Bu pok his-tuyg'uni ona allasi sayqallaydi, ota o'giti va ibrati kamolga yetkazadi. Buyuk siymolarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga nisbatan hurmat, bu, eng avvalo, o'z xalqiga, bobo-kalonlariga bo'lgan e'zoz demakdir.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Hayotga nazar solsak insonlarning ongi, tafakkuri hamda dunyoqarashlari o'zgardi, ularning ko'pchiligi turli-tuman fikr-andishalar bilan band bo'lib yashasada. Bunday fikr-andishalar hoh to'g'ri bo'lsin, hoh xato bo'lsin, baribir, uning sohibiga butunlay go'zal ko'rinish, ajoyib bo'lishi tabiiy bir holdir.

«Go'zal turmush rohat-farog'at bilan umr o'tkazmoqdan iboratdir. Umr hech mahal bir yerda to'htab turmas, balki hamisha birin-sirin o'tar va nihoyat tugar ham. O'tgan umrni butun dunyo molini berib bo'lsa ham qaytarib bo'lmas. Shuning uchun bu oz umrni rohat-farog'at bilan kechirmoq, zoye o'tkazmoqdan saqlanmoq lozim bo'ladi» [2.7], - degan so'zlarga quloq tutadigan bo'lsak, oilaning baxt saodati aqlli, ilmi, yaxshi tarbiyali bolalarni yetishtirishdir. Ana shu tarbiyalar orqali dunyoda buyuk siymolar yetishib chiqishi muqarrardir. Avlod-ajdodlarimizning bosib o'tgan uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lining ajoyib tajribalari, saboqlari, xalqimizning azaliy an'analari, urf-odatlarini, rasm-rusumlari o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini esimizda tutmog'imiz lozim.

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, AbuAli ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari jahonga taniqli Ulug' zotlar ta'limoti va qarashlarini inkor etib bo'lmaydi.

**Tadqiqot natijalari.** Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda maqolada buyuk siymo Zahiriddin Muhammad Boburning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi yosh avlod uchun ibrat mavzusida qisqacha ma'lumot berishga harakat qildik.

Yosh avlod e'tiqodi, axloqiy-ma'naviy tarbiyasining mustahkamlash to'g'risida gap ketganda, bunda ota-onani qadrlash, oilani mustahkamlash, farzandning majburiyati, o'zaro do'stlik va sadoqat, poklik, sha'n-nomus, andisha kabi asrlar davomida qon-qonimizga o'rnashib qolgan fazilatlar, muallim va o'quvchilar odobi kabi yaxshi qadriyatlarga vafodor bo'lish, yoshlarda g'oyaviy qarshilikni shakllantirish, milliy g'oya targ'ibotini muntazam davom ettirish kabi sifatlarni singdirib borish muqarrardir.

«Biz-daraxt, bolalar mevamiz emaski, ular shig'il pishganda odamlarning oldiga qo'ysak, bir o'tirishda yeb, duo qilib ketaversalar va shu bilan ishimiz tugasa! Bolalar aslimizni, naslimizni asrlardan-asrlarga tashuvchilardir! Yaralishiga biz sababchi bo'ldik, aslida, ular Allohning ne'matlaridir» [8. 246].

Gar shunday ekan, barcha ota-onalar o'z zurriyodlari uchun javobgar va tarbiyachi bo'lishi zamonning zaruratidir. Har bir go'dak ta'limni xonadonda, maktabda, guzarda, boshqa bilim yurtlarida oladi. Lekin bola tarbiyasida asosiy o'rinni oila egallaydi. Chunki bola oilada dunyoga keladi, yurishni, gapirishni, muloqotni oilada o'rganadi, bola olamni oilada anglaydi. Shu sababli har bir bolaning birinchi va asosiy muallimi ota-ona hisoblanadi. Ota-ona farzandlari tug'ilganidan keyin o'z yurish-turishini, munosabatini nazorat qilishi kerak. Zero, bola o'quvchi bo'lib, ustozlarini, ya'ni ota-onaning qilgan ishlarini takrorlashga intiladi.

Yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasi va hunari to'g'risida gap ketganda «Qobusnoma»dagi ushbu so'zlarni eslash maqsadga muvofiqdir: «Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa-yu,

ammo hunari bo'lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'arra bo'lmag'il... Bu ot faqat bir nishonadin boshqa narsa emasdur. Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il» [6.5] - deyilgani har-bir yoshning hunarga, mehnatga bo'lgan qiziqishini yoshligidan oilada shakllanishiga olib keladi.

Insoniyat solnomasida ulug' zotlarning mavqei nihoyatda ahamiyatli bo'lgan. Bunday shaxslar jamiyat ravnaqi va sivilizatsiyasiga to'siq bo'lib turgan ijtimoiy-siyosiy illatlarni boshqalardan avval sezib oladilar, ularni o'ziga xos nodir iste'dod, qat'iy iroda va oqilona siyosat bilan yo'q qila oladilar. Bunday insonlarning nomi u yoki bu elat tarixiga mangu nom bo'lib muhrlanib qolgan ana shunday vatandoshlarimizdan biri, kindik qoni Andijon zaminida to'kilgan, nomi dunyoga tanilgan Zahiriddin Muhammad Boburdur.

«Saodatmand shoh-Zahiriddin Muhammad Boburga hind tuprog'ida besh yilgina (1525-1530-yillar) hukmdorlik nash'asini surish nasib etdi, xolos. Lekin Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan davlat 332-yil davom etdi. Jangu jadallar, mislsiz uqubatlar, cheksiz insoniy iztiroblar, vatan sog'inchi bilan yo'g'rilgan bu yillar yangi turkiy-hindiy davlatning shakllanish davri hamda hassos shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she'riy ijodining gullagan bir fasli bo'ldi.

Garchand Zahiriddin Muhammad Bobur tarix hukmi bilan bu yurtlarga fotih sifatida lashkar tortib kelgan bo'lsa-da, jannat misol bu o'lkani taqdir taqozosiga ko'ra o'ziga vatan tutdi, garchand tug'ilgan diyori - Andijon, umrining shiddatli damlari kechgan muazzam Samarqand sog'inchi so'nggi nafasigacha yodidan chiqmagan bo'lsa-da, hind tuprog'iga, hind eliga ham mehr ko'ydi, uni obod va yakdil qilishga intildi, o'zaro adovatli qabilalarni birlashtirib, markazlashgan davlatga asos solgan» [11. 275-276], endilikda nomi butun jahonga mashhur Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda katta onasi Eson Davlatbegim chorbog'ida hijriy 888-yil muharram oyining oltinchi (1483-yil 14-fevral) kuni tong otar chog'da yorug' dunyoga keldi.

Inson o'z farzandini kichik yoshdan tarbiyalab, odob bermog'i kerak. Ma'lum yoshga yetgach, ba'zi narsalarni bolaga qabul qildirish qiyin bo'ladi. Ularni hayotda o'z o'rnini belgilashga intilish o'zida olijanob maqsadga, axloq tushunchasini chuqur tushunish va ularni ma'lum tizimga solishga javob beradigan sifatlarni hosil qilish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Yuqorida aytganimizdek, Boburiylar xonadonida ham bola tarbiyasi masalasiga kichik yoshdan e'tibor qaratiladi. «Millatning yetukligi, shaxsning ma'naviy kamoloti o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, hurmati, samimiyati, mehr-oqibati bilan belgilanadi. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat odamning qoniga ona suti bilan kiradi. Bu muqaddas tuyg'uni ona allasi parvarish qiladi, ota tarbiyasi va namunasi ulg'aytiradi» [9.39].

Ana shu tuyg'uga amal qilgan holda Zahiriddin Muhammad Bobur tarbiyasiga e'tibor berib, Sharqona ta'lim-tarbiya qoidasiga ko'ra, bolani uch yoshligidanoq bag'rini ilmu urfon nuri bilan yoritish taraddusiga kirishadi. Davr talabi shundayki, Islom dini qoidasiga binoan, savod chiqarishni Allohni Kalomidan, so'ngra arab tilidan boshlamoq

lozim bo'lgani bois shuni hisobga olib, 1486-yil qish oyidan boshlab, alifbo o'rganishga kirishdi.

«Arab alifbosidagi ilk harflarni o'rgatish hamda Qur'oni karimni Fotiha surasini o'qitish qoidasi bo'lib, dastlabki savod chiqarish ibtidosidir. Zahiriddin Muhammad Bobur birinchi kundanoq «Alhamdu» kalimasining to'g'ri talaffuzini o'rganib oladi.

Bir hafta ichida u Fotiha surasini tajvid (to'g'ri qiroat) qoidasi bilan yod olib ulgurdi. To'rt yoshga to'lganda arab tilining «sarf» qismidan xabar topdi, yozuvni ham o'rganib ulgurdi, ancha-muncha kitoblarni o'zboshimchalik bilan «tatalab» o'qishga kirishgan edi, ammo o'qituvchisi bunga yo'l bermadi. Aaqqat «Qobusnoma» va «Kalila va Dimna» kabi tarbiyaga oid kitoblarni o'qitar edi» [4.53-54].

«Kitob o'qishning huzurli, eng go'zal yupanchlardan bo'lgani kabi zehn orttirmak, ilmu ma'rifat hosil qilmak, xullas, ilmu tarbiya o'rganmak uchun juda kerakli bo'lgan ishlardan biridir. Bir yaxshi kitob o'qish ila qayg'ular tarqaladir, lekin avvalo shuni aytamanki. Bizning uchun to'g'ri-yu, durust kitoblar ko'rishdan foydaliroq hech narsa yo'q» [3.11]. Buni hisobga olgan holda u besh yoshga yetganligini e'tiborga olib, odob-ahloq jihatdan uning tarbiyasiga jiddiy kirishildi. Tengqurlari ichida ancha gavdaliroq, tetik va sog'lom ko'ringaniga e'tibor qaratgan uning otasi Umarshayx Mirzo o'g'lini jismonan baquvvat bo'lishiga e'tibor qaratib, bolani yoshlik davridanoq jismoniy tarbiyaga e'tibor qaratishini, keyinchalik esa uni asta-sekin harbiy mashqlarni o'rgatishga kirishmoqni niyat qiladi.

Yana shuni aytish kerakki ingliz olimi Xerald Lembning yozishicha u olti yoshga yetganda, uni «ichkaridan», ya'ni ayollar xonasidan olib chiqib, erkakchasiga tarbiyalay boshladi. Uning tarbiyasi bilan endi ko'proq erkaklar shug'ullanganligini» [4. 62] ta'riflab o'tadi.

«Zahiriddin Muhammad Bobur yetti yoshga to'ldi, o'sha davr tabobat ilmida bolalar salomatligini asrash muhim masala edi. Qizamiq, chechak, bezgak, ko'k yo'tal kabi kasalliklar go'daklar hayoti uchun haqqoniy ofat edi. Uni bu dardlarga chalinmasligi uchun chorbog'da maxsus tabib ham istiqomat qilardi. Tabib udumga binoan har yili ma'lum kasallikka qarshi «emlash» usullarini qo'llar edi. Zahiriddin Muhammad Boburni chechak kasalidan saqlash uchun yetti yoshga to'lganida mo'g'ul tabib maslahati bilan bo'yniga ko'k feruza tosh osib, qo'liga ham bog'lab qo'ydilar. U kasallikka uchramay, sog'-salomat o'smoqda edi. Shuni hisobga olib otasi shahzodalarga xos ayrim hunarlarni o'rgatishni tayinladi. Unga tez yugurish va suvda suzishni o'rgatdilar.

Zahiriddin Muhammad Bobur yetti yoshga to'lganida unga maxsus rikobdor (uzangibon, otga mindiruvchi) tayinlanib, ot minish va choptirishga o'rgata boshladi. Avvaliga rikobdor ustoz minib, keyin egar oldiga Zahiriddin Muhammad Boburni o'tkazdi. Qamchi urushi bilan ot chopib ketdi. Rikobdor Boburjonga «Shahzodam, egar qoshini mahkam ushlang, boshingizni baland ko'tarib, oldinga qarang, qo'rqmang» degan edi. Tulpor yeldek chopib ketdi. Shu tariqa ot minishni o'rganib oldi. Bu mashg'ulotni o'rganib olgach, unga yoydek egikroq, ixchamgina maxsus bag'dodiy qilich yasab berdilar va alohida yarog'bardor tayyorladilar. Uni qilich ushlashga, uning

bilan turli harakatlar qilishga o'rgatdi. Qilichni ikkala qo'lida ushlashga, ikki qo'lida birdek zarba berishga o'rgatadilar.

Endi kamon otishda mahorat hosil qilish navbati keldi. Ma'lumki, tarixda poroxdan o'q yasab otadigan miltiq kashf qilingunga qadar kamon (o'q-yoy) butun dunyo harbiy ishida uzoqqa otadigan asosiy qurol bo'lib kelgan. Avvaliga bu maxsus tirandozlar (merganlar) ishi bo'lgan, keyinchalik kamon har qanday mamlakat armiyasining asosiy uzoqqa otish quroliga aylangan. Urushda qilich ishlatish uchun yovga yaqin borish kerak, kamonda esa qarshi tomonga uzoq masofadan turib talafot yetkazish mumkin. Boburni yoshligidan kamonda otishga o'rgatdilar. Sakkiz yoshligida u kamonni kuch bilan yaxshi egolmasdi, shunga yarasha, o'q ham uncha uzoqqa uchmasdi. Kuch-ku bolada sekin-asta paydo bo'lar, shuning uchun uni belgini yaqinroqqa qo'yib, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgata borishdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur sekin-asta kamondan o'q otish mashqiga ham o'rganib ketdi. Eng muhimi, mo'ljalni aniq olish va uni o'q bilan urish. Ammo aniq mo'ljalga olish, ya'ni merganlik ziyraklikka va aniq-ravshan ko'ra bilishga bog'liq. Ustozi mana shunga e'tiborni qaratdi va shahzodani aniq mo'ljalga olishga, ya'ni merganlikka o'rgatdi.

Sharq xalqlari orasida chavgon juda qadimiy o'yinlardan biri hisoblanib, o'z o'yin qoidalari hamda ko'rinishi jihatidan ko'pkari va xokkey o'yinlariga o'xshash bo'lgan. Ana shunday o'yinga Zahiriddin Muhammad Bobur to'qqiz-o'n yoshidan boshlab chavgon o'yinida qatnashar ekan, eng muhimi ot choptirishni, egarda mahkam o'tirgan holda engashib, qo'ldagi chavgon tayoqcha bilan to'pga tashlanish va uni mo'ljalga olib yaxshi o'rganishi kerakligini yaxshi bilardi. Hammadan tez ot choptirish, to'pni oldinga surib, «raqibiga» bermasdan, tezlik bilan olib borib darvozaga kiritish mana shu vaqtdagi chaqqonlik, otda turib mo'ljalni aniq olish va orqadan birovni quvib yetishiga imkon bermaslik bular o'yinning asosiy shartlari hisoblanardi. Ammo bolalar uchun xavfli bo'lgani sabab (chang-to'zonda ko'zga biror narsa kirishi bor) ko'p ham ruhsat etavermas edilar. Atrofdagi qiyqiriqlar esa o'yinga alohida fayz, qiziqish baxsh etardi» [4.76], bu esa bolalarni jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishiga sabab bo'lardi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida chavgon o'yiniga juda katta shoirona ta'rif berganligiga shu asarni o'qiganda o'zim guvohi bo'ldim. Bu o'yin haqiqatdan ham yoshlarni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'n yoshga to'lganida ota-bola ot minib atrofni sayr qilishga chiqadigan bo'lishdi. Ayniqsa, bahor kezlari mulozimlar bilan qiradirlar osha otda sayr qilib yurgan paytlarda uning qalbida ota yurti-go'zal Farg'ona vodiysi va kindik qoni to'kilgan Andijonga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari uyg'ona boshladi. Yurtga bo'lgan farzandlik his-tuyg'ulari keyincha vatan, ulus haqidagi g'azallarining asosiy mazmunini tashkil qildi. Zahiriddin Muhammad Bobur Umarshayx Mirzoning sakkiz farzandidan (uch o'g'il va besh qiz) eng kattasi bo'lgani uchun Farg'ona mulki-ning qonuniy merosxo'ri bo'lgan. Shu sababli unga bo'lg'usi podshoh deb alohida e'tibor berilardi. Ustozlari unga alohida mehr qo'yib, o'n yoshga to'lgandan boshlab

nafosat davralariga, shoiru olimlar majlislariga olib kirib, ularni suhbatlarini tinglatar mustaqil fikr yuritishga e'tiborini qaratganlar, shu sababdan ham o'n-o'n bir yoshidan boshlab mustaqil mutolaaga o'rgandi.

Uning doimiy sirdoshi kitob bo'ldi. Kitobga oshno bo'lish bilan olam va hayot, inson va jamiyat, davlat va davlatdorlik, dunyo sir-asrorlarini asta-sekinlik bilan bolalik shuuriga singdirib bordi. Uning yoshlikda o'qigan kitoblari shahzodani dunyo hayotining oqu qorasini yaxshi farqlaydigan shijoatli va bahodir o'smir bo'lib yetishiga sabab bo'ldi. Uning birinchi tanishgan kitobi katta bobosi ulug' Sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari» bo'ldi. «Tuzuklar» bilan birinchi marta tanishar ekan, hazrati Sohibqironning podshohlik hayoti, davlat tuzumi, qo'shinlarining tashkil topishi haqida favqulodda muhim dastlabki ma'lumotlarni ola boshladi. Va bildiki, davlatni idora qilishda vaziru amirlar, shuningdek, viloyatlarda o'tirgan noiblar katta mavqega ega ekanligini tushunib yetdi. Unga bolaligidanoq turli majlis-anjumanlarda, olimlar davrasida o'zini tuta bilishga doir qoidalarni o'rgatdilar. Davralarda o'zini tuta bilish, bilganini izhor qilishdagi sharqona odob, bilmaganda esa, sukut saqlash va o'zgarlar fikrini eshitish odobi haqidagi ta'limotni ham o'zlashtirdi. Yuqoridagilaridan ibrat olgan holda bugungi kun yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy ruhiyatini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirar ekanmiz, bunda asosiy vazifa yoshlar qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhini uyg'otish asnosida jamiyat ishiga dahldor, millat taqdiriga taqdirdosh, Vatan istiqboli uchun javobgar shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun ma'naviy-axloqiy ruhiyatni mustahkamlash, javobgarlik hissini uyg'otish, dahldorlik tuyg'usini oshirish vazifalarini bilmog'imiz lozim.

«Insondagi eng chiroyli fazilatlar, avvalo, oila bag'rida kurtak yozadi. Farzandlarimizning ertaga qanday inson bo'lib voyaga yetishi oiladagi tarbiyaga ham bog'liq. Shuning uchun otabobolarimiz oilaviy tarbiyaga g'oyat nozik masala sifatida alohida e'tibor qaratgan. Farzandlar baxt-saodati, kelajagi uchun halol kasb ila halol luqma topishga harakat qilishgan. Yaxshi ustozlar qo'lida ta'lim olishini ta'minlashgan» [10. 56]. «Farzandni bolalikdan kasb-hunarga, mehnatga o'rgatish lozim, shunda uni tarbiyalash oson kechadi. Ota-ona iqtisodiy tomondan qancha boy bo'lmasin, hech qachon farzandini haddan ziyod erkalamaslik va isrofgarchilikka o'rgatmaslik kerak. Bu dunyoda hamma narsaning hisob-kitobi bo'lgani bois, inson tomonidan yaratiladigan va tabiat in'om etadigan noz-ne'matlarning ham hisob-kitobi bor. Shunday ekan, farzandni inson tomonidan, tabiat tomonidan yaratilgan noz-ne'matlarni qadrlashga va isrof qilmaslikka o'rgatish lozim. Agar doimo bolaga xohlagan narsalarini muhayyo etsangiz, u bu narsalarning qadriga yetmaydigan bo'ladi. Agar o'zi mehnat qilib, halol mehnat bilan o'sha narsalarga erishsa, u bularni qadrlaydi va ehtiyot qiladi. Shuningdek, bu unga asaldan ham shirin va oltindan ham qimmat tuyular» edi [2. 65]. Agar biz ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o'z maqsadlarimizga yetolmaymiz. Har bir inson alohida va to'laqonli tizim ekan, uning ana shu serqirra, rang-barang va ziddiyatli olamiga mos ravishda g'oyaviy ta'sir kompleks tarzda, keng miqyosli, yoshlar olamini yaxlit holda qamrab olgan shaklda olib borilmog'i lozim. Bu borada «Bir bolaga yetti mahalla ham

ota ham ona» degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Yoshlarni barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishida «umid va kutmoq insonning qanoti ekanligi, qanotlar qancha katta bo'lsa, u shunchalik yuksakka ucha oladi. Umidsiz qolsachi, tamballashadi, o'zi xayr qilolmagandek, bandalik vazifalarini ham ado etolmaydi. Shuning uchun ham, ular ko'zingizga xunuk va nuqsonli ko'rinadi. Chuchuk suv ichib yurgan odamgina suvning sho'r-tuzli ekanligini payqaydi. Ya'ni har qanday ashyoning sifati ziddi orqali ma'lum bo'ladi... Ulug' tangri sizga istaganingizni beradi, nimaga erishish yo'lida himmat ko'rsatsangiz, o'shanga sizni muyassar aylaydi. Chunki, qush qanotlari bilan yuksaladi, mo'min himmati bilan» [5.92-93] - degan hikmatli iborada ma'no ko'p ekanligiga e'tibor qaratish muhimligidadir.

**Xulosalar.** Xulosa qilib aytganimizda, inson ko'ngli hamisha komillikka, yetuklikka talpinib kelgan, komillikka intilish, ular siymosida o'zlikni anglash, yuksak axloqiy fazilatlarni boyitib boradi, gar shunday ekan yoshlarni bugungi davrga teran va chuqur mushohada yuritgan holda nazar tashlashni, hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Yoshlarda tarbiya, ma'naviy-axloqiy ruhiyatni hosil qilish va yanada mustahkamlash, turli vositalar orqali qadriyatlarimiz, mentalitetimizga yot tushuncha va g'oyalar kirib kelishi, tarqalishini oldini olish barchaning burchi va vazifasi hisoblanadi. Buyuk siymo Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik faoliyati hamda davlatni boshqarish usuli va yo'llari hamma uchun ibratdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Zahiriddin Muhammad Boburning yashash tarzi bilan tanishgach, uning haqiqiy komil inson bo'lganiga amin bo'lamiz. Shunga ko'ra uning shaxsi barcha uchun ibrat maktabi, u biz uchun ideal shaxsdir, shu bilan birga hayotning mazmun-mohiyatini anglash, atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirish, ma'naviyat va ma'rifatga intilish kabi inson uchun zaruriy, oliyne'mat bo'lgan fazilatlarni egallash hamdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. «Ўзбекистон». 2021.
2. Абдуазимов Файзулла ва бош. Бахтингиз ўз қўлингизда: ҳаётини воқеалар ва суд очерклари. Тошкент. «Akademnashr». 2012.
3. Алий Назимо. Қизлар тарбияси. Тошкент. «Камалак». 1994.
4. Жалилов Сайфиддин. Шахзода Бобур. Тошкент. «Movarounnahr». 2013.
5. Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Тошкент. «Янги аср авлоди». 2017.
6. Кайковус. Қобуснома. Тошкент. «Истиқлол». 1994.
7. Олимат ул-Банот. Муошарат одоби. Тошкент. «Меҳнат». 1991.
8. Содиқова Турсуной. Ҳаёт тилсими. 3-жилд. Тошкент. «Ўзбекистон». 2016.
9. Туленов Жондор ва б. Истиқлол ва тараққиёт мафқураси: мақсад ва йўналишлари. Тошкент. «Ўзбекистон». 1993.
10. Шайх Абдулазиз Мансур. Тинчлик ва осойишталик-олий неъмат. Тошкент. «Movarounnahr». 2013.
11. Хайридин С. Бобурийнома. Тошкент. «Шарқ». 1997.